

## O‘zbek va fransuz tillaridagi qofiyadosh maqollarda so‘z turkumlari

*Muqumov Toshqobil Bozor o‘g‘li*

*SamDChTI o‘qituvchisi*

Ravish so‘z turkumi ham xuddi sifat kabi predmetning belgisini bildirib keladi. Ammo sifat o‘ning oldidan qo‘llanilsa, ravish fe‘lni oldidan qo‘llaniladi va uning xususiyatini aniqlab keladi. Va ish harakatning bajarilish payti, tezligi, miqdorini, holatini, o‘rnini, sababini, maqsadini ko‘rsatib beradi. Ravish so‘z turkumidagi qofiyadosh iboralarni biz ikkiga bo‘lib tahlil qilamiz.

1- Butun qismi ravishdan tashkil topgan qofiyadosh iboralar;

2- Qofiyadosh bo‘lib kelgan so‘zgina ravishdan iborat bo‘lgan frazeologik birliklar.

Butun qismi ravishdan tashkil topgan qofiyadosh iboralarga misol: *de gré à gré* → o‘zaro kelishib; *Bon gré- mal gré* → irodasiga qarshi; *Accord de gré à gré* → ikkitarafli kelishuv; *Au fur et à mesure* → imkoni boricha, doimiy. Bu kabi iboralar to‘lig‘icha ravish bo‘lganligi uchun ham ularni yakka holda tahlil qilish imkoniyati yo‘q. O‘zbek tilida qofiyadosh frazeologik iboralar orasida bu kabi ravishli iboralarni uchratmadik. Faqat qofiyadosh so‘zlari ravish bilan ifodalangan frazeologik birliklarga misol: *Qui trop se hâte en cheminant En bon chemin se fourvoie souvent*; (shoshilgan qiz erga yolchimas) Bu maqolda *en cheminant* – ilgari ilgan, shoshgan ravishning holat ma‘nosini ifodalaydi. Gapda bu ravish holat holi (*circonstanciel de manière*) vazifasida *souvent*-tez ravishi esa payt ravishi bo‘lib gapda payt holi (*circonstanciel de temps*) vazifasida kelgan. Frazeologik birliklarda qofiyadosh so‘z ravish bilan ifodalangan birliklar fransuz tilida kam sonli tashkil etadi. O‘zbek tilida esa bu kabi turg‘un birikmalarni uchratmadik.

**Olmosh so‘z turkumidagi qofiyadoshlik.**

Olmosh so‘z turkumi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, u so‘z, so‘z birikmasi, gap bo‘lagi, hatto butun gap o‘rnida almashib keluvchi atash ma‘noga ega bo‘lmagan so‘z turkumidir. Olmoshlarning yetti turi mavjud bo‘lib, qofiyadosh iboralar ichida bor yo‘g‘i to‘rtta qofiyadoshlik olmoshlar uyg‘unligi asosida kelgan. Olmoshlarning ikkitasi mustaqil kishilik olmoshi (*pronom personnelle tonique*) va qolganlari gumon, so‘roq, bo‘lishsizlik, o‘zlik ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etgan. Masalan: *Aujourd’hui à moi, Demain à toi.* (Birovning ustidan kulmagin zinhor, sening ham ustingdan kulguvchilar bor). Yoki: *Quel pour moi Tel pour toi.* (salomiga yarash aligi). Bu ikkala misolda *moi* va *toi* mustaqil kishilik olmoshlari (*les pronoms independant*) sanaladi. Lekin o‘zbek tilida mustaqil kishilik olmoshlari yoki nomustaqil kishilik olmoshlari degan tushuncha mavjud bo‘lmaganligi sababli bu

fransuzcha qofiyadosh frazeologik birlikka monand maqol o'zbek tilida topilmadi. Ikkinchi misolda yana bir qofiyadosh olmosh juftligi mavjud bo'lib, ular *quel-qanday*, so'roq olmoshi va *tel-* shunday ko'rsatish olmoshi hisoblanadi. Yoki o'zbek tilidagi olmoshli frazeologik birlik: *Boqqolda mening gapim, Qassobda sening gaping* – bu iboradagi qofiyadosh so'zlar grammatik shakllangan kishilik olmoshlari bilan ifodalanmoqda. *Il ne quitte rien Du sien* (o'z bilganidan qolmaydi). *Rien*- hech narsa- bo'lishsizlik olmoshi, *sien*- o'ziniki, o'zlik olmoshi. *L'esprit qu'on Veut avoir gâte celui qu'on* (o'zini aqlli ko'rsatgan odam aqlsiz bo'lib ko'rinadi). *On* - gumon olmoshidir va uning yana bir xususiyati ikki qatorda ham on gumon olmoshi takror qo'llangan holda qofiyani hosil qilgan. *Predlogning qofiyadoshligi*; Qofiyadosh iboralar ichida atiga bir dona misol aniqlandiki u predloglarning frazeologik birlik tarkibida tahlil qilishda tayanch vazifasini o'tadi. Masalan: *Bras dessus- ustida Bras dessous- tagida* (qo'lni qo'lga berib yoki bir yoqadan bosh chiqarib kabi o'zbek tiliga talqin qilsa bo'ladi). Bu qofiya hosil qilgan predloglarning ikkalasi ham yo'nalish ma'nosini ko'rsatuvchi predlog turidir. Shuningdek o'zbek tilida son qofiyadoshlikni hosil qilgan turg'un birikmalar ko'p uchraydi. Masalan: *O'rganish – bir hunar, O'rgatish – ikki hunar ; Urishganga bir o'lim, Orachiga – ikki. Og'iz – bir, quloq – ikki, Bir so'zlab, tingla qirq ikki* kabi. Aralash so'z turkumlarining qofiyadoshligi; Qofiyadosh turg'un birikmalarning qolgan qismini aralash so'z turkumlarining qofiyadoshligi tashkil etadi. Bunda bitta frazeologik birlik tarkibida ikki xil so'z turkumi o'zaro qofiyadosh bo'lib keladi. Bularni misollar orqali ko'rib tahlil qilish mumkin. Fransuz tilida ot va sifat ko'rinishdagi jami o'n bitta frazeologik birlik topdik. Bular: *À chaque oiseau*,(ot) *Son nid est beau*,(sifat) (hammaning o'z tug'ilgan joyi aziz). *Mémoire et usage* –(ot) *Rendent l'homme sage*-(sifat). (takrorlash bilimlarning otasidir). *Jeux de main* (ot) *Jeux de vilain* (sifat) (qo'lingga erk berma, yaxshilikka olib bormaydi).

Yuqoridagi misollarda ko'rish mumkinki ot va sifat o'zaro qofiyadoshlikni hosil qilmoqda. Lekin o'zbek tilida bu kabi qofiyadosh turg'un birikmani uchratdik. Lekin bunday holat fransuz tilida boshqa so'z turkumlaridan ko'ra ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan: *So'zlagandan so'zlamagan yaxshiroq, So'zlab edim, boshimga tegdi tayog*; Yoki: *Yursang sayog, Yeysan tayog*; Fransuz tilida sifat va ot ko'rinishida jami to'qqizta qofiyadosh frazema topildi. Masalan: *Le mond est rond*,(sifat) *Qui ne sait pas nager va au fond*;(ot).(kim suzishni bilmasa cho'kadi). Ot va ravish ko'rinishidagi qofiyadosh frazemalardan jami to'rtta topdik. Masalan: *Noce de feu Noce de peu* (tez kelgan sevgi tez so'nadi). Va o'z navbatida ravish va ot ko'rinishidagi jami to'rtta qofiyadosh birlik ham topdek. Masalan: *L'esprit est toujours* (ravish) *La dupe de son bon coeur*.(ot) (ko'ngilga buyruq berib bo'lmaydi).

O'zbek tilida ham ravish+ot shaklidagi iboralarni uchratish mumkin. Masalan: *Butamasang, meva oz, (ravish) Butasang yeysan qish-u yoz. (ot) Fe'l va ot ko'rinishida, masalan: Il dit cela de bouche- og 'iz Mais le coeur n'y touche- tegmoq. (tili boshqa – dili boshqa) Ot va fe'l qofiyadoshligi qofiyadosh frazeologik birliklar, masalan: En avril n'ôte pas un fil, En mai, fais ce qu'il te plaît* (aprel aldanchi). Yoki o'zbek tilidagi misol : *Mening nafsim balodur, (ot) Yonar o'tga soladur* (fe'l) Olmosh va ot shaklida ham qofiyadoshlik hosil bo'lgan turg'un birikmalarni uchratish mumkin. Masalan: *Avoir du pain quand, On n'a plus de dents* (sayil o'tdi foydasi yo'q). Fransuz tilida ot va olmosh shaklida jami uchta misol topdik. Masalan: *Aller où le roi, Ne peut aller pour moi* (og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning bolasi gapirsin). Sifat va fe'l qofiyadoshligi, masalan: *Plus la haie est basse, Plus on y passe* (ko'kka ko'tarsang boshga chiqadi). Fe'l va sifat shaklidagi, masalan: *Si la mer bouillait, Il y aurait bien des poissons de cuits*; (o'rmonga o't ketsa ho'l-u quruq barobar yonadi). Sifat va ravish shaklidagi qofiyadosh frazeologik birlik, masalan: *L'hiver n'est pas bâtard, S'il ne vient tôt, il vient tard* (qish har doim keladi). Ot va predlog qofiyadoshligi, masalan: *Chandelle qui va devat éclairer, Mieux que celle qui va derrière*; (oltin qoldirguncha yaxshi nom qoldir). O'zbek tilida predloglar mavjud emasligi bunday turg'un birikmalarning o'zbek tilida mavjud emasligiga ishora qiladi. Predlog va sifat qofiyadoshligi, masalan: *Haut comme deux sous- ostida De fromage mou- yumshoq* (bo'yi bir qarich, no'xotdek). Bog'lovchi va predlog qofiyadoshligi, masalan: *Avoir des si, Et des mais prep.* (og'zidan chiqqandan yoqangga yopishtiradi). Bog'lovchi va ot qofiyadoshligi, masalan: *Travailler comme, Un bête de somme.* (eshakdek ishlamoq). Aralash so'z turkumlarini tahlil qilish jarayonida bitta frazeologik birlik tarkibida nafaqat ikkita so'z turkumi qofiyani hosil qilmasdan uchta so'z turkumi qofiya sifatida bitta leksik birlik tarkibida kelishi ham mumkin, masalan: Ot, olmosh va son qofiyadoshligi, masalan: *Secret de deux, Secret de Dieu. Secret de trois, Secret de tous.* (bir og'izdan chiqquncha). Yana sifat, ot fe'l qofiyadoshligi, masalan: *Quand il fait beau, Prends ton manteau*; Yoki : *Quand il pleut, Prends le si tu veux*; (yoz to'ningni tashlama, qishda o'zing bilasan) Ot, olmosh fe'l qofiyadoshligi, masalan: *C'est le chien de Jeand de Nivelles Il s'enfuit quand on l'appelle.* (shoshilganda labbay topilmas).

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Ўзбекистон, 1998. - 238 б.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, Ma'naviyat nashriyoti, 2008-yil, - 176 b.
3. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: ИИЛ, 1961. – 394 с.
4. Бушуй А.М. Актуальные проблемы фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1998.–101 с.
5. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: ИИЛ, 1961. – 394 с.
6. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. - М.: ВШ, 1987. -288 с.